

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

RASULOV OTABEK ABDULAZIZOVICH

ZAMONAVIY BOSQICHDA JAZOIRDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY
ISLOHOTLARNING O‘ZIGA XOS JIHALARI

23.00.02 – “Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar”

siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Ilmiy rahbar: siyosiy fanlar doktori,
professor Yovqochev Shuxrat Akmalevich

Toshkent – 2025

UDK:

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по политическим наукам
Contents of dissertation abstract
of philosophy (PhD) on political sciences**

Rasulov Otabek Abdulazizovich Zamonaviy bosqichda Jazoiridagi ijtimoiy-siyosiy islohotlarning o'ziga xos jihatlari.....	3
Расулов Отабек Абдулазизович Особенности социально-политических реформ в Алжире на современном этапе.....	22
Rasulov Otabek Abdulazizovich Specifics of Socio-political Reforms in Algeria at the Modern Stage.....	44
Эълон қилинган ишлар рўйхати Список опубликованных работ List of Published Works.....	48

TOSHKENT DAVLAT SHAQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

RASULOV OTABEK ABDULAZIZOVICH

ZAMONAVIY BOSQICHDA JAZOIRDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY
ISLOHOTLARNING O‘ZIGA XOS JIHLTLARI

23.00.02 – “Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar”

siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Ilmiy rahbar: siyosiy fanlar doktori,
professor Yovqochev Shuxrat Akmalevich

Toshkent – 2025

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ss117 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.rektorat@uwed.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yovqochev Shuxrat Akmalevich
siyosiy fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Muhammadsiddiqov Muhammadolim
Muhammadroziq o'g'li
siyosiy fanlari doktori, professor

Yakubov Ildar Xarasovich
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 рақамли Илмий кенгашининг 2025-йил «_____» soat_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45- 21; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot–resurs markazida tanishish mumkin. (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21, faks: (99871) 233-52-24.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____dagi ___raqamli reyestr bayonnomasi).

D.B. Sayfullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlar doktori, professor.

O.I. Alimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, siyosiy fanlar doktori (PhD) dotsent

E.S. Sultanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tizimida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning shiddat bilan o‘zgarayotganligi, geosiyosiy raqobat va iqtisodiy proteksionizm siyosatining kuchayib borayotganligi mintaqalar va davlatlarning ichki va tashqi siyosatini chuqur o‘rganish va tahlil qilishni taqozo qilar ekan, davlatlarning ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash tajribalari, rivojlanish strategiyalari, jamoatchilik bilan ishlash va xalq manfaatlarini ro‘yobga chiqarishdek dolzarb masalalarni tadqiq qilish zaruratini o‘rtaga chiqarmoqda.

Dunyoning ko‘plab mintaqalari kabi Shimoliy Afrika davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar jahon siyosiy tizimiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatish kuchiga ega bo‘lib, mintaqadagi qarama-qarshilik va ziddiyatlarning ortib borishi, mintaqadagi mavjud muammolarni nazorat qilish tizimining izdan chiqishi va mintaqa chuqur ijtimoiy-siyosiy transformatsion jarayonlarni boshdan kechirayotganligi Osiyo va Afrika mintaqasidagi tinchlik va barqarorlik muhitiga ta’siri masalalarini o‘rganish jihatlari bilan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jazoir va Shimoliy Afrikaning boshqa mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning murakkab bosqichidan o‘tayotganligi va mintaqa davlatlarining o‘zaro do‘stona munosabatlariga katta ehtiyoj borligi, atrofdagi mintaqalarda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi bir qator muammolarga duch kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi dunyoning turli mintaqalaridagi mamlakatlar bilan do‘stona aloqalar va har tomonlama o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan prinsipial yangi, ochiq va amaliy tashqi siyosatni olib bormoqda. Hozirda va istiqbolda Shimoliy Afrika davlatlari xususan, Jazoir bilan O‘zbekiston uchun ustuvor yo‘nalishlarda, birinchi navbatda savdo, investitsiya sohaslarida hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganish uchun mazkur davlatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini bilish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yaqin va uzoq xorijdagi barcha mamlakatlar bilan hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qilar ekan, arab-musulmon dunyosi bilan turli sohalarda ayniqsa, samarali iqtisodiy diplomatiya orqali tashqi savdoni kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi texnologiyalar, raqamlashtirish, transport-logistika, bank-moliya sektorini rivojlantirish, shuningdek, ushbu sohalardagi xorijiy tajribalarni o‘rganishni alohida ta’kidlab o‘tadi¹.

Ushbu dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-apreldagi PF-5400-son “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan

¹ Послание Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева Олий Мажлису. – 25 января 2020 г. // УзА. – <https://uza.uz/ru/posts/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020>.

takomillashtirish hamda siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-martdagi PF-5379-son “O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu tadqiqot mavzusi mahalliy olimlar tomonidan juda kam o‘rganilganligini ta’kidlagan holda, asosan xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida ko‘rishimiz mumkin, shunday bo‘lsa-da, Jazoirning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy rivojlanishining o‘ziga xosligi yaxlit bir mavzu sifatida o‘rganilmaganligini ta’kidlash lozim. Shu bois, tadqiqot mavzusi doirasidagi ilmiy ishlarni shartli ravishda uch guruhga ajratishimiz mumkin:

Birinchi guruhga mahalliy olimlarning ilmiy ishlari kiradi. Xususan Shimoliy Afrika mintaqasidagi va umuman arab mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xavfsizlik masalalari, etnik va diniy muammolar, islomning ushbu mintaqa mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti va siyosiy tizimlariga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan muhim ilmiy asarlari orasida Sh.Yovqochev, M.Muhammadsidiqov, Z.Munavvarov, D.Madaminova, S.G‘ofurov, F.Karimov, S.N.Mavlyanova, A.Abdisattorov, G.Kadirova, H.Azimov, F.Ko‘ysinova, N.Alimovaning asarlarini ta’kidlash lozim².

Ikkinchi guruhga MDH mamlakatlari tadqiqotchilarning, shu jumladan taniqli rus tadqiqotchilarining asarlari mansub bo‘lib, ularda Jazoir davlatini tashkil topishi va mustaqillik uchun kurashlari, Jazoirning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish muammolari, Jazoirning ichki va tashqi siyosati o‘rganilgan va tahlil qilingan. Xususan R.G.Landa, A.Podseroba, S.E.Babkina va E.A.Mironova, M.Volodina, G.Mirskiy, G.Lukyanov, M.Sapronova, N.Voronchanina va boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilganligini ta’kidlash lozim³.

Uchinchi guruhga xorijiy olimlar ingliz va arab tilidagi tadqiqotlar mansub bo‘lib, Shimoliy Afrika (Arab Mag‘ribi) mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari, islomning jamiyat va siyosatga ta’siri, Jazoirdagi diniy va siyosiy partiyalarning siyosiy jarayonlarga ta’siri, siyosiy tizimi va boshqaruv shakli, aholining siyosiy madaniyati va ishtiroki, 90-yillardagi

² Ushbu tadqiqotchi olimlarning manbalari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

³ Ushbu tadqiqotchi olimlarning manbalari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

fuqarolar urushi, 2019-yilgi Hirak harakatlari xorijiy tadqiqotchilar xususan arab tadqiqotchilari A.Bubeker, Ahmed Benchemsi, Salhi Z.S., Kandiyoti D., Al-Ali N., Lahouari Addi, Hafez M.M., Shadi Hamid, Ould Khettab Djamilia, Ouaisa R., Malik Tarab, Zeraoulia F., Baazizi N., Yasmina Allouche, Shabafrouz M. va boshqalar, g'arb olimlari Craig R. Whitney, Evans M., & Phillips J., Driessen M.D., Isabelle Werenfels, Michael Willis, Mortimer R., Roberts H., Dalia Ghanem, Entelis J.P., William B. Quandt, Wiktorowicz Q., Thomas H. Johnson, Thurston A. va boshqalarning tadqiqotlarida keng o'rganishlar olib borganini ta'kidlash lozim⁴.

Jazoirdagi ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini o'rganish va uning tashqi siyosatiga, xususan qo'shni davlatlar va jahonning yetakchi davlatlari bilan munosabatlarga ta'sirini ko'rib chiqish O'zbekistonda Shimoliy Afrika va Arab mamlakatlari tadqiqotlar bazasini yanada rivojlanishi uchun xizmat qiladi, shuningdek, hozirda va kelgusida O'zbekiston-Jazoir munosabatlarining istiqbollari baholash va ularning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini hisobga olgan holda ba'zi aniq takliflarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqbollari (O'zbekistonning tashabusslari asosida)" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy bosqichda Jazoirdagi ijtimoiy-siyosiy islohotlarning o'ziga xos jihatlarini ochib berish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardir:

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'rganishning nazariy-konseptual jihatlarini o'rganish, olimlarning fikrlari, yondashuvlarini tahlil qilish;

Arab Mag'ribi davlatlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari, siyosiy tizimi va boshqaruv shakllarining o'ziga xosliklarini, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va ochib berish;

Jazoirning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish tarixining yoritish, mustaqillikka erishish yo'llari, uning mamlakat siyosiy tarixidagi o'rni va keyingi ijtimoiy-siyosiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish;

Jazoir siyosiy tizimi va davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari, boshqaruvdagi muammolar, xalq va hokimiyat munosabatlarini o'rganish;

Jazoir ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish, turli siyosiy partiya va harakatlarning siyosiy jarayonlarga ta'sirini ochib berish;

Jazoirda ijtimoiy-siyosiy muammolarning siyosiy barqarorlik va xavfsizlikka ta'sirini o'rganish, turli terrorist va ekstremist tashkilotlar faoliyati va aholi hamda siyosiy rejimga ta'siri va bosimini tahlil qilish;

⁴ Ushbu tadqiqotchi olimlarning manbalari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Jazoirning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida davom etayotgan muam-molar va istiqbollari o'rganish, ishsizlik va boshqa ijtimoiy muammolarning siyosiy muammo va jarayonga aylanishini ochib berish;

Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishish yo'llari borasidagi islohotlar va ularning natijalarini tahlil qilish, ijtimoiy muammolarni hal qilish borasidagi hukumat rejalarini o'rganish va siyosiy barqarorlikni ta'minlash choralarini tahlil qilish;

Jazoirning xalqaro maydondagi roli va O'zbekiston bilan munosabatlarini aniqlash, ikki davlatning mushtarak manfaatlarini va hamkorlik yo'nalishlarini kengaytirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti Jazoirning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti Jazoirning ijtimoiy-siyosiy islohotlarning evolyutsiyasi, siyosiy rivojlanishning o'ziga xosligi va ijtimoiy-siyosiy muammolarning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga ta'sirini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, davrlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, kuzatish, SWOT, kontent va qiyosiy tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Jazoir Respublikasi ijtimoiy-siyosiy tizimining murakkab tuzilmasi davlat va jamiyat o'rtasidagi diniy-madaniy, muhofazakor-sekulyar, muxolifat va harbiy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar orqali namoyon bo'lishi hamda davlat boshqaruvida markazlashuv tizimini minimallashtirishni nazarda tutuvchi "postmodern boshqaruv" modeliga ko'ra asoslab berilgan;

Jazoir siyosiy tizimining evolyutsiyasida sotsializm, kvazikapitalizm, antiimperializm va milliy g'oya elementlarining uyg'unlashgan holda faoliyat yuritishi va aholining talab va e'tirozlariga moslashuvchan siyosiy dastur shakllantirilayotgani "davlat-oila" tamoyiliga asoslangan davlat paternalizmi konsepsiyasidan kelib chiqib asoslab berilgan;

Jazoirning ijtimoiy-siyosiy islohotlar va o'zgarishlar diniy muxolif guruhlarni dunyoviy boshqaruv tizimiga integratsiya qilishga yo'naltirilganligi, vakillik organlarining vakolatlarini kengaytirish, iqtisodiy diversifikatsiyani neft-gaz sohasidan boshlash hamda tashabbuskor va tizimli jamoatchilik nazoratini o'rnatishga qaratilgan "Yangi Jazoir" strategiyasi asosida isbotlangan;

O'zbekiston tashqi siyosatida yaqin va uzoqdagi hamkor davlatlar jo'g'rofiyasini yanada kengaytirish, O'zbekiston va Jazoir o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarni rivojlantirish orqali Markaziy Osiyo va Shimoliy Afrika mintaqalari o'zaro bog'liqligini kengaytirish imkoniyatlaridan kelib chiqib, Jazoirda O'zbekiston Respublikasining elchixonasini ochish taklifi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Shimoliy Afrika mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tadqiq etish doirasida Jazoirning taraqqiyot modeli nazariy-metodologik jihatdan asoslab berilgan;

Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mintaqasi davlatlarining siyosiy tizimlarning o'xshashligi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning bir vaqtda va kutilmaganda yuz berishi, mintaqaning bir davlatida o'rtaga chiqqan muammo zanjir reaksiyasi ko'rinishida butun mintaqaga tarqalishi siyosiy rivojlanish modellarining zaif nuqtalarini mavjudligi ochib berilgan;

Jazoirning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishidagi muammolar diniy radikalizm va terrorizm xavfining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi mamlakatning Sahroi Kabir kabi beqaror va nazorat qilishning imkoni qiyin bo'lgan mintaqada joylashganligi bilan ham belgilanishi tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalari respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e'lon qilinganligi, amaliyotda joriy qilingani va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning materiallaridan siyosatshunoslik, jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, mintaqaviy-siyosiy jarayonlar, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik masalalariga oid darslik va qo'llanmalar tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlar o'tkazishda foydali bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'quv kurslari va dasturlarida "Konfliktologiya", "Mintaqashunoslik", "Xalqaro xavfsizlik", "Siyosat va din", "Geosiyosat", "Jahon siyosati" fanlarini o'qitishda hamda tegishli yo'nalishlardagi tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jazoirdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'ziga xos jihatlariga oid tadqiqot natijalari asosida:

O'zbekiston tashqi siyosatida yaqin va uzoqdagi hamkor davlatlar jo'g'rofiyasini yanada kengaytirish, O'zbekiston va Jazoir o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarni rivojlantirish orqali Markaziy Osiyo va Shimoliy Afrika mintaqalari o'zaro bog'liqligini kengaytirish imkoniyatlaridan kelib chiqib, Jazoirda O'zbekiston Respublikasining elchixonasini ochish taklifiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimida kompleks tizimli tadqiqot natijalariga oid tahliliy materiallar tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlari bilan hamkorlik boshqarmasining 2025-yil 7-avgustdagi 18/40-1948-son Dalolatnomasi*). Natijada olingan ilmiy xulosa va takliflar O'zbekiston va Jazoir o'rtasidagi hamkorlik ko'lamini kengaytirishga qaratilgan ikki tomonlama harakatlar rejasini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Jazoir Respublikasi ijtimoiy-siyosiy tizimining murakkab tuzilmasi davlat va jamiyat o'rtasidagi diniy-madaniy, muhofazakor-sekulyar, muxolifat va harbiy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar orqali namoyon bo'lishi hamda davlat boshqaruvida markazlashuv tizimini minimallashtirishni nazarda tutuvchi

“postmodern boshqaruv” modeliga ko‘ra asoslab berilganiga oid tahliliy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari qo‘mitasining tahliliy va targ‘ibotlar materiallarini tayyorlashda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari qo‘mitasining 2025-yil 8-avgustdagi 02-02/1/2203-son dalolatnomasi*). Natijada olingan taklif va tavsiyalar din va jamiyat masalalariga doir yaratilgan ilmiy risola va kitoblarning mazmun-mohiyatini boyitishga xizmat qilgan.

Jazoir iqtisodiy rivojlanish modeli “ijaraga beruvchi davlat” (rentier state) konsepsiyasi doirasida tahlil qilinib, iqtisodiy diversifikatsiyaning yetishmasligi va boshqaruv samaradorligining sustligi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik omillaridan biri ekanligiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimida kompleks tizimli tadqiqot ma’lumotnomalarini tayyorlashda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlari bilan hamkorlik boshqarmasining 2025-yil 7-avgustdagi 18/40-1948-son Dalolatnomasi*). Natijada dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga xizmat qilgan.

Jazoirdagi ijtimoiy-siyosiy islohotlar va o‘zgarishlar diniy muxolif guruhlarni dunyoviy boshqaruv tizimiga integratsiya qilishga yo‘naltirilganligi, vakillik organlarining vakolatlarini kengaytirish, iqtisodiy diversifikatsiyani neft-gaz sohasidan boshlash hamda tashabbuskor va tizimli jamoatchilik nazoratini o‘rnatishga qaratilgan “Yangi Jazoir” strategiyasi asosida isbotlanganiga oid olingan xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tomonidan foydalanilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining 2025-yil 12-noyabrdagi 02/548 son dalolatnomasi*). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi xodimlari tomonidan tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ma’ruza matnlarini mazmunan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro darajadagi va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (ulardan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning tadqiqot qismi 162 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, respublika fan hamda texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, nazariy hamda amaliy ahamiyati, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, ishonchliligi, aprobat siyosi, e‘lon qilinishi, ishning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Jazoirning zamonaviy siyosiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari”**ni ochib berishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o‘rganishning nazariy-konseptual jihatlari, Arab Mag‘ribi davlatlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari, Jazoirning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish tarixi batafsil o‘rganilgan.

Zamonaviy davrda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o‘rganish siyosiy fanlar tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar boshqaruv va ommaviy siyosatni shakllantiruvchi jarayonlar bo‘lib, shaxslar, guruhlar, institutlar va hukumatlarning o‘zaro munosabatlarini qamrab oladi⁵. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ko‘pincha tarixiy shart-sharoitlar, iqtisodiy holatlar, madaniy qadriyatlar va texnologik taraqqiyot tomonidan shakllantiriladi. Globallashuv ijtimoiy-siyosiy o‘zaro ta’sirlarni kuchaytirib, transmilliy harakatlar va mafkuralarning chegaralar osha tarqalishiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik fikrini safarbar qilish va siyosiy natijalarga ta’sir o‘tkazish uchun kuchli vositaga aylandi. Biroq, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar manfaatlar to‘qnashganida mojarolar, hokimiyat kurashlari va ijtimoiy bo‘linishlarga ham olib kelishi mumkin.

Karl Marks ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni “sinfiy guruhlar o‘rtasida hokimiyat va moddiy resurslar uchun kurashlar” sifatida ta’riflagan bo‘lsa, Maks Veber “hokimiyat, kuch va legitimlikning uzluksiz muzokaralari va hokimiyatni amalga oshirish jarayoni” deb talqin qiladi. Gabriyel Almond va Devid Iston kabi siyosatshunoslar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni jamiyatda qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatuvchi siyosiy tizimlarning o‘zaro munosabatlari sifatida o‘rganadi. Umuman olganda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar jamiyatdagi muhim voqea-hodisalar, saylovlar, harakatlar va partiyalar, siyosiy institutlar va tashkilotlar faoliyati, madaniy omillar, turli sohalardagi islohotlar va qarorlar qabul qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladigan keng qamrovli jarayon hisoblanadi.

Arab Mag‘ribi davlatlari - Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marokash va Tunis geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, Afrika, Yevropa va Yaqin Sharq chorrahasida joylashgan bu mintaqa global xavfsizlik, savdo va diplomatiyada muhim rol o‘ynaydi. Uilyam Zartman ta’kidlaganidek, Arab Mag‘ribining strategik joylashuvi uni mustamla-kachilik davridan tortib zamonaviy xalqaro munosabatlarga bo‘lgan tarixiy raqobat maydoniga aylantirdi⁶.

Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marokash va Tunisning boshqaruv tuzilmalari, siyosiy barqarorlik darajasi va diniy siyosatning ahamiyati jihatidan sezilarli

⁵ Tilly C., To Explain Political Processes. American Journal of Sociology, 100(6), 1995, pp.1594–1610.

⁶ William I. Zartman. Man, Estate and Society in the Contemporary Maghreb. Pall Mall Press, 1973, p. 576.

farqlarga ega. Ushbu besh davlatning asosiy o'xshashligi arab va islom dunyosining bir qismi ekanligidir. Shuningdek, bu davlatlarning barchasi mustamlaka boshqaruvidan o'tgan: Jazoir, Tunis, Mavritaniya va Marokash Fransiya hukmronligi ostida, Liviya esa Italiya boshqaruvi ostida bo'lgan. Mustamlaka davri ushbu mamlakatlarning zamonaviy davlat institutlarini shakllantirishda ahamiyatli bo'lgan. Yana bir umumiy xususiyat - siyosiy beqarorlik muammosi. Siyosatshunos (arabshunos) olim Sh.Yovqochev "g'arblik bo'lmagan davlatlar" nazariyasidan kelib chiqib, arab-musulmon davlatlarining siyosiy tizimini tahlil qilar ekan, siyosiy-mafkuraviy farqlariga qaramasdan arab davlatlari rejimlarining hokimiyatni patriarxal prinsiplarga asoslangan umumiy avtoritarizm tendensiyalariga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu siyosiy partiyalar ustidan nazoratning kuchliligida va jamoat tashkilotlariga homiyligida o'z ifodasini topmoqda. Hatto demokratlashtirish borasida nisbatan ilg'or bo'lgan, zamonaviy siyosiy institutlar faoliyat ko'rsatayotgan arab davlatlarida ham avtoritar institutlar va davlat boshqaruvi mexanizmlari ustun mavqeni egallab kelmoqda ⁷. Professor Sh.Yovqochev bu boradagi xulosalarini davom etar ekan, arab davlatlarida ayniqsa, Jazoir, Suriya, Tunis, Misrda siyosiy rejimni "liberallashtirish" siyosiy elita va jamiyat birligi va totuvligi uchun qaltis va xatarli ekanligini bildiradi va bunga asosiy sabab islomiy radikal kuchlar ekanligini ko'rsatib o'tadi. Zero islomiy muxolifatchilarni siyosiy sohaga jalb qilish va qonuniylashtirish Misrda J.Nosirga suyuqasd, A.Sadatning o'limiga, Tunisda X.Burgibaning hokimiyatdan ketishi va davlat to'ntarilishiga⁸, 1990-yillarda Jazoirda fuqarolar urushiga, keyinchalik 2011-yilda Liviya va Suriyada fuqarolar urushiga va siyosiy rejimlarning qulashiga olib keldi.

Rossiyalik sharqshunos M.Volodinaning fikricha, mintaqaning barcha mamlakatlarining siyosiy tizimlarida alohida rol davlatga tegishli bo'lib, u nafaqat "asosiy islohotchi", balki yirik ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal qilishda "hakam" bo'lib, mamlakat ichki va tashqi siyosatini deyarli to'liq belgilaydi. Bu Shimoliy Afrika mamlakatlarida davlat sektorining shakllanishi va kengayishi hamda iqtisodiy munosabatlarga davlatning faol aralashuvi bilan bog'liq. Boshqa bir rossiyalik olim quyidagilarni yozadi: Shimoliy Afrika mamlakatlari siyosiy taraqqiyotini belgilab bergan o'ziga xos xususiyatlardan biri bu yerda klanlar, klanlararo va qarindosh-urug'chilik munosabatlarining katta rol o'ynaganligidir. Hokimiyat ko'pincha shaxsiy munosabatlarda shakllanadi va jamlanadi, "shaxs hech qachon jamiyatda o'z-o'zidan, qarindosh urug'dan ajralgan holda individual tarzda biron mavqega erisholmaydi"⁹.

Shimoliy Afrika yoki Arab Mag'ribi davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida yozganimizda "Arab bahori"ga to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi. Arab bahori 2010-2011-yillarda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida sodir bo'lgan norozilik namoyishlari va qo'zg'olonlar to'liqini bo'lib, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy

⁷ Ёвкочев Ш.А. Влияние ислама на формирование современной политической системы АРЕ. Дисс. на д.п.н. Т., 2009. – С. 100.

⁸ Ёвкочев Ш.А., юкоридаги манба, 100-101 бетлар.

⁹ Сапронова М.А. Основные черты и особенности функционирования политических систем арабских стран // Политические системы и политические культуры Востока. Под ред. профессора А.Д.Воскресенского. – 2-е изд. перераб и доп. – М: АСТ: Восток – Запад, 2007. – С. 141.

muammolarning yig'indisi natijasida yuzaga keldi. Arab bahorining asosiy sabablari ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va uzoq muddatli avtoritar rejimlarning davom etishi edi. Siyosatshunos Liza Anderson yozganidek, uzoq yillik avtokratik boshqaruv jamoatchilikning siyosiy jarayonda ishtirok etish imkoniyatini chekladi. Tunis, Misr va Liviya kabi ko'plab arab davlatlarida hokimiyat rahbarlari butun siyosiy qudratni o'z qo'llarida jamlagan va repressiya hamda homiylik tarmoqlari orqali o'z mavqeyini mustahkamlashga harakat qilgan. Ushbu avtoritar boshqaruv ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalgan norozilik kayfiyatiga sabab bo'ldi¹⁰. Iqtisodiy inqiroz va o'sib borayotgan tengsizlik ham Arab bahori vujudga kelishining muhim omillaridan biri edi. Mutaxassislar iqtisodiy noto'g'ri boshqaruv, yuqori ishsizlik darajasi va korrupsiya jamoatchilik orasida norozilikni kuchaytirganini e'tirof etadi¹¹.

Arab bahori natijasida Tunis, Liviya va Misrda rejim almashinuvi sodir bo'ldi. Jazoir va Marokashga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, bu ta'sir nazorat ostida bo'ldi. Biroq, Liviya va Suriyada vaziyat izdan chiqib ketdi va ushbu mamlakatlar uzoq muddatli fuqarolar urushi girdobiga g'arq bo'ldi. Siyosatshunos (arabshunos) M.Muhammadsidiqovning yozishicha, Jazoir, Marokash, Livan, Sudanda kuchli ijtimoiy-siyosiy larzalarga qaramay ushbu davlatlar immunitet ishlab chiqdi. Bu davlatlarda noroziliklar faqat vaqti vaqti bilan takrorlanadigan tusga kirib, siyosiy tizim o'zgarishiga emas, uning salgina zamonaviy realiyalarga ko'nikishga olib keldi. Masalan, Jazoirdagi ijtimoiy-siyosiy larzalar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga asoslangan edi. Bu hodisalar qo'shni Tunis va Misrdagi ko'tarilishlar zanjiri sifatida emas, mamlakatda mahsulotlar narxining oshishi bilan bog'liq edi. Shu bois ham namoyishchilar siyosiy talablar bilan emas, ishsizlik, narxlarning oshishi, past oylik ish haqlari, yuqori inflyatsiya ko'rsatkichlari, soliqlarning ko'tarilishi kabi ijtimoiy muammolarni olib chiqqan edi¹².

Fransuz mustamlakachilik boshqaruvi Jazoirning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va agrar sohalarida keng o'zgarishlarga olib keldi. Tadqiqotchi Ashil Mbembe to'g'ri ta'kidlaganidek, mustamlakachilik o'tib ketgan tarixiy hodisa emas, balki mustamlakachilikdan keyingi davlatlarning siyosiy tuzilmalari, iqtisodiy bog'liqligi va o'zlik siyosatiga ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda¹³. "Jazoir xalqi siyosiy mustaqillikka erishishi mumkin, ammo agar u tafakkur mustaqilligiga erishmasa, bu mustaqillik faqat qog'ozda qoladi", deb yozgan edi arab olimi Ben Nabi Malik¹⁴.

Jazoir mustaqillik urushi XX-asrning eng muhim dekolonizatsiya kurashlaridan biri bo'lib, u Fransiyaning Jazoir ustidan mustamlaka hukmronligiga barham bergan va dunyo bo'ylab ozodlik harakatlari uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. Sakkiz yil davom etgan ushbu mojaroda partizan urushi, siyosiy muzokaralar

¹⁰ Lisa Anderson. *Demystifying the Arab Spring: Parsing the Differences Between Tunisia, Egypt, and Libya*. Foreign Affairs; New York Vol.90, Iss.3, 2011, pp.2-7.

¹¹ Marc Lynch. *The Arab Uprising: The Unfinished Revolutions of the New Middle East*. PublicAffairs; 2013, p.304.

¹² Муҳаммадсидиков М.М. Африка араб давлатларида диннинг сиёсийлашуви ва унинг сиёсий жараёнларга таъсири. Дисс. с.ф.д. Т., 2018. – Б. 113.

¹³ Achille Mbembe. *On the Postcolony*. University of California Press; First Edition, 2001, p.292.

¹⁴ دار الفكر: دمشق. مشكلة الثقافة. بين نبي، مالك 1959.

va ommaviy qirg'inlar sodir bo'ldi. Natijada, 1962-yilda Jazoir mustaqillikka erishdi. Mustaqillik uchun kurashni olib borgan Milliy ozodlik fronti dastlab sanoatlashtirish va dunyoviy boshqaruvni ustuvor vazifa sifatida belgilagan sotsialistik davlatni barpo etdi. Jazoir tajribasi shuni ko'rsatadiki, modernizatsiya jarayonlari natijasida islom ijtimoiy hayotdan siqib chiqarilmadi aksincha, u jamiyatning siyosiy mobilizatsiyasi va milliy identiteti uchun muhim omil sifatida yangi shakllarda qayta namoyon bo'ldi¹⁵.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Jazoir siyosiy tizimi va ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashdagi muammolar**"ga bag'ishlangan bo'lib, unda Jazoir siyosiy tizimi va davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari, Jazoir ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar, Jazoirda ijtimoiy-siyosiy muammolarning siyosiy barqarorlik va xavfsizlikka ta'siri ochib berilgan.

Jazoir siyosiy tizimi kuchli prezidentlik tizimi bilan ajralib turadi, bunda ijroiya hokimiyati yuqori darajada markazlashgan. 1962 yilda mustaqillikka erishgandan beri Jazoir kuchli ijroiya hokimiyatini saqlab kelmoqda, prezident esa davlat institutlari, xavfsizlik kuchlari va iqtisodiy siyosat ustidan yirik nazoratga ega. Mamlakat ko'p partiyaviy tizim asosida faoliyat yuritib, haqiqiy siyosiy raqobat hukmron elita va harbiylarning ta'siri bilan cheklangan. Jazoir davlat boshqaruv markazlashgan byurokratik tuzilma asosida tashkil etilgan bo'lib, u davlatning barcha sohalardagi aralashuvi va neft daromadlari ta'sirida shakllangan¹⁶. Hukumat iqtisodiy rejalashtirish va davlat xizmatlarida asosiy rol o'ynaydi, bu esa zamonaviy boshqaruv bilan an'anaviy huquqiy tarmoqlarni o'z ichiga olgan murakkab ma'muriy tizimni yuzaga keltiradi. Nomarkazlashtirish va demokratlashtirishga qaratilgan konstitutsiyaviy islohotlarga qaramay byurokratik samarasizlik va siyosiy cheklovlar samarali boshqaruvga to'sqinlik qilmoqda¹⁷.

Jazoir iqtisodiyoti asosan uglevodorodlarga bog'liq ekanligi uning uglevodorod resurslariga tayangan "ijaraga beruvchi" davlat modeli (rentier state model) sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. Bu Jazoirga ma'lum darajada siyosiy barqarorlik keltirgan bo'lsa-da, iqtisodiy qaramlik va boshqaruvdagi samaradorlikning yetishmovchiligi kabi muammolarni ham yuzaga keltirdi. Ishsizlik siyosiy barqarorlik va boshqaruvga ta'sir qiluvchi eng muhim iqtisodiy muammolardan biri. Yuqori ishsizlik darajasi iqtisodiy muammolarga sabab bo'lib, siyosiy institutlarga bo'lgan jamoatchilik ishonchini pasaytiradi va ijtimoiy notinchlikni oshiradi. Jazoir misolida buni ko'p kuzatish mumkin.

Jazoir parlamenti dastlab yagona partiyaviy tizim asosida Milliy Ozodlik Fronti (MOF) tomonidan boshqarilgan. 1989-yilda ijtimoiy noroziliklar fonida ko'ppartiyaviylik paydo bo'ldi, bu esa 1991-yilgi saylovlarning to'xtatilishi va siyosiy institutlarni qayta shakllantirgan fuqarolar urushiga olib keldi¹⁸. O'tgan

¹⁵ Gellner E. Muslim Society. Cambridge University Press, 1981.

¹⁶ Ланда Р.Г. История Алжира. XX век. – Институт востоковедения Российской Академии наук. – М., 1996 г. – С. 172-173.

¹⁷ Ould Khettab, Djamilia. Algeria: 'Military oligarch' Saïd Chengriha replaces Ahmed Gaïd Salah as top military chief. // The Africa Report. – 2 January 2020 12:43/ – <https://www.theafricareport.com/21750/algeria-military-oligarch-said-chengriha-replaces-ahmed-gaid-salah-as-top-military-chief/>

¹⁸ Entelis J.P. Algeria: The revolution institutionalized (3rd ed.). Routledge, 2016, p.45.

asrning 80 yillarida demokratiyaning uchinchi to'liqini davrida Jazoirda ham demokratik islohotlar qilinib, muxolifat partiyalarning tashkil topishiga ruxsat beradi. Biroq, bunday vaziyatdan islomiy guruhlar uddaburonlik bilan foydalandi. Islomiy harakatlar hukumatdagi korrupsiyani tanqid qildi va uy-joy va ish muammolariga yechim taklif qildi. Bu keng miqyosli tashviqot uchun zamin yaratdi va unga islomchilarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy usullarini yaratdi. Bu esa Islomiy Najot Frontining paydo bo'lishiga yo'l ochdi¹⁹.

1989-yilda tashkil etilgan Islomiy Najot Fronti (INF) islomiy mafkura va populistik talablarni birlashtirib, korrupsiyaga botgan MOFga qarshi adolatni va'da qildi. 1990 yilgi mahalliy saylovlar va 1991-yilgi parlament saylovlarining birinchi bosqichida INF 231 o'rindan 188 tasini qo'lga kiritdi, bu dinning demokratik kontekstda kuchli siyosiy vosita ekanini ko'rsatdi. INFning yuksalishi sekulyar-harbiy elitani xavotirga soldi, natijada 1992-yilgi saylovlar bekor qilindi va o'n yil davom etgan fuqarolar urushi boshlandi²⁰. Yuz mingdan ortiq inson halok bo'lgan bu mojaro shuni ko'rsatdiki, diniy harakatlar qonuniy siyosiy jarayondan chetlatilganda, ular radikallasib, davlatni beqarorlashtiradi. Fuqarolar urushida Qurollangan islomiy guruh hukumatga qarshi kurash olib bordi, hukumat ekstremizmga qarshi kurashni boshladi, natijada jamiyatdagi bo'linish yanada chuqurlashdi.

Umuman olganda, Jazoirning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy manzarasi uning murakkab tarixiga asoslanadi. 1954-1962-yillardagi Fransiyaga qarshi mustaqillik urushi va 1990 yillardagi fuqarolar urushi, ya'ni "Qora o'n yillik" mamlakatning ijtimoiy tuzilmasi va iqtisodiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi²¹.

1999-2019-yillarda prezident Abdulaziz Buteflika davrida yarashuvga intilish kuzatildi. Uning 2006-yilgi Tinchlik va Milliy Yarashuv Xartiyasi sobiq jangarilarga amnistiya taqdim etdi, shu bilan birga, davlat tomonidan homiylik qilingan diniy tashabbuslarni kuchaytirdi: masjidlar qurilishi, Qur'on maktablari va konservativ ijtimoiy siyosatlar joriy etildi²². Bu strategiya islomiy tahdidlarni nazorat ostidagi siyosiy maydonga integratsiya qilish orqali neytrallashtirdi, bu esa Jazoirga 2011-yilgi Arab bahorini nisbatan tinch o'tkazishga yordam berdi. Tunis yoki Misrdan farqli o'laroq, Jazoir inqilobdan qochdi, bunga neft daromadlari va rejimning diniy masalalarni e'tiborga olishi sabab bo'ldi. Biroq 2019-yilgi Hirak norozilik harakatlari Buteflikaning iste'fosiga olib kelgan, bu yangi avlodning siyosiy kayfiyatidagi o'zgarishni ko'rsatdi. Asosan sekulyar ruhda bo'lgan bu harakat demokratik islohotlarni talab qildi, ammo uning korrupsiyaga qarshi axloqiy tanqidlari islomning adolat qadriyatlariga hamohang edi. Siyosiy jihatdan bu shuni anglatadiki, islomiy partiyalar zaiflashgan bo'lsa-da, din jamoatchilik umidlarini

¹⁹ Лобашёва А. Распространение сети Исламского фронта спасения Алжира в Европе в 1990-е годы. // Тамбов: Грамота, 2016. № 2 (64). С. 96-99. ИСЧН 1997-292X. www.gramota.net/editions/3.html, <https://cyberleninka.ru/article/n/rasprostranenie-seti-islamskogo-fronta-spaseniya-alzhira-v-evrope-v-1990-e-gg>

²⁰ Kapil A. The Algerian Civil War: A Review Essay [Review of La guerre civile en Algérie: 1990-1998.] Middle East Studies Association Bulletin, 32(2), 1998, pp.155–160.

²¹ Austin G. Conflict imaginaries in Algeria after the black decade: peace without reconciliation. Modern & Contemporary France, 32(4), 2024, pp.445–459.

²² Muedini F. Algeria: Abdelaziz Bouteflika, Sufism, and Authoritarianism. In: Sponsoring Sufism. Palgrave Studies in Religion, Politics, and Policy, 2015, pp.43–66.

shakllantirishda bilvosita rol o‘ynashda davom etmoqda. Jazoir tajribasi musulmon davlatlaridagi kengroq tendensiyani aks ettiradi: dinning doimiy ta’siri ehtiyotkor boshqaruvni talab qiladi, chunki uni butunlay siyosatdan chiqarish norozilikni keltirib chiqarishi mumkin, lekin nazoratsiz o‘shishi sekulyar hokimiyatga tahdid soladi. 2019-yilda saylangan prezident Abdulmajid Tabbun davrida ham Jazoir ushbu nozik muvozanatni saqlab kelmoqda.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Zamonaviy Jazoirda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning rivojlanishi va siyosiy barqarorlikni ta’minlashdagi islohotlar”** deb nomlanib, mazkur bobda Jazoirning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida davom etayotgan muammolar va istiqbollar, Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishish yo‘llari borasidagi islohotlar va ularning natijalari, Jazoirning xalqaro maydondagi roli va O‘zbekiston bilan munosabatlari tahlil qilingan va ochib berilgan.

Jazoirning zamonaviy tarixidagi eng muhim ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlaridan biri Hirak harakati bo‘lib, u shuningdek, “Tabassumlar inqilobi” sifatida ham tanilgan. 2019-yil fevral oyida boshlangan bu harakat mamlakatning siyosiy manzarasida burilish nuqtasi bo‘ldi va o‘nlab yillar davomida mustahkamlangan avtoritar boshqaruvga qarshi keng ko‘lamli tinch namoyishlar bilan ajralib turdi. Gap shundaki, 1999-yilda hokimiyatga kelgan Abdilaziz Buteflika dastlab neft narxlarining ko‘tarilishi tufayli ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishni shuningdek, fuqarolarni birlashtirishni uddalay oldi. Biroq, vaqt o‘tishi bilan Buteflikaning boshqaruvi tobora korrupsiya, kliyentelizm (shaxsiy manfaatlarga asoslangan siyosiy aloqa) va “Le Pouvoir” (kuch) deb nomlanuvchi elita ichida hokimiyatning jamlanishi bilan ajralib turdi. 2013-yilga kelib Buteflika insultdan so‘ng sog‘lig‘i sezilarli darajada yomonlashdi, bu uni deyarli harakatsiz qilib qo‘ydi va uning akasi Said Buteflika va sodiq yondoshlardan iborat guruh tomonidan boshqariladigan rejim haqidagi tasavvurlarni kuchaytirdi. Bu davrda Jazoir yoshlari o‘rtasida norozilik kuchaydi, ular yuqori ko‘lamdagi ishsizlik, cheklangan siyosiy ishtirok va “kekxa” rejimdan uzoqlashish hissi bilan yuzlashdi²³.

Hirak harakatining bevosita sababi Prezident Abdilaziz Buteflikaning 2019-yil 10-fevralda shu yili 18-aprelda bo‘lib o‘tishi rejalashtirilgan prezidentlik saylovlarida beshinchi muddatga nomzodini qo‘yishini e‘lon qilishi bo‘ldi. Buteflikaning sog‘liq jihatdan ko‘rinadigan zaifligi va saylov kampaniyasini olib bora olmasligiga qaramay qabul qilingan bu qaror Jazoir xalqi uchun haqorat sifatida qabul qilindi. Bu rejimning xalqdan uzilganligi va o‘z hokimiyatini cheksiz davom ettirish niyatidagi keng tarqalgan norozilikni aniq ko‘rsatdi. E‘lon jamiyatning keng qatlamlarini - talabalar, ziyolilar, ishchilar va ayollarni birlashtirdi, ular “misli ko‘rilmagan miqdorda” ko‘chalarga chiqdi.

Hirak noroziliklari tinch va inklyuziv xarakteri bilan ajralib turdi, bu esa unga “Tabassumlar inqilobi” nomini berdi. 1990-yillardagi zo‘ravon tartibsizliklardan yoki 2000-yillardagi mahalliy protesta harakatlaridan farqli o‘laroq, Hirak Jazoir jamiyatining turli qatlamlarini - yosh va kekxa, shahar va qishloq aholisi, dunyoviy

²³ Сапронова М.А. (2016). Роль Абдель Азиза Бутефлики в урегулировании внутриафриканского конфликта. Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Международные отношения, 16(3), 567-577.

va dindor, arab va amazig‘ (berber)larni birlashtirdi. Namoyishchilar “Silmiya” (tinch) va “Yetnash gaa” (hammasi ketishi kerak) kabi shiorlar bilan zo‘ravonlikdan voz kechish va butun hukmron elitani rad etishni namoyish etdilar. Noroziliklar ijodkorlik bilan, xususan, kulgili bannerlar, satirik qo‘shiqlar va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan jonli madaniy ifodalar bilan ham ajralib turdi. Ijtimoiy tarmoqlar harakatni safarbar qilish va davom ettirishda muhim rol o‘ynadi. Facebook va Twitter namoyishchilarga harakatlarni muvofiqlashtirish, namoyishlarning videolarini ulashish va ularning talablarini global auditoriyaga yetkazish imkonini berdi²⁴. Harakatning yetakchisiz tuzilishi inklyuzivlikni rivojlantirishda kuch bo‘lsa-da, an’anaviy siyosiy partiyalar va muxolifat arboblarni rad etishni maqsad qilgan qasddan qilingan tanlovni ham aks ettirdi, chunki ular rejim bilan hamkorlik qilgan yoki uning tomonidan o‘zlashtirilgan deb hisoblanardi. Bu bosim 2019-yil 2-aprelda Buteflikaning iste’fosiga olib keldi, bu harakat uchun muhim g‘alaba bo‘ldi²⁵.

